

XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING XXXIV SESSİYASI BO‘LIB O‘TDI



XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING XXXIV SESSİYASI BO‘LIB O‘TDI Sessiyada deputatlar, shahar hokimi va o‘rinbosarlari, sektor rahbarlari, hamda aloqador tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirok etdi.

Kun tartibida quyidagi masalalar:

-“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan intervyusidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar to‘g‘risida”;

-“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning joriy yilning 20- avgust kuni mamlakatimiz tadbirkorlari bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotda bildirilgan taklif va mulohazalari to‘g‘risida”;

-“Termiz shahar Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi tomonidan 2021-yil 6 oyida davomida olib borilgan ishlar to‘g‘risida”;

-“Termiz shahridagi jinoiy, fuqarolik, iqtisodiy sudlar raislarining 2021-yilning I yarim yillikdagi faoliyati yuzasidan amalga oshirilgan muayyan ishlar to‘g‘risida

axborotlari to'g'risida”;

-“Xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari, partiya deputatlik guruhi va shahar Kengashi deputatlarining o'tgan davr mobaynidagi faoliyati to'g'risida”;

-“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020- yil 16- oktabr kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ichki bozorda narx-navo barqarorligini saqlash chora-tadbirlari muhokamasi to'g'risida” hisobotlar ko'rib chiqildi hamda axborotlar tinglandi.

Sessiyaga qo'yilgan yuqoridagi masalalar yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, kelgusida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining tegishli qarorlari qabul qilindi.